

## JADIDCHILIK TARIXINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI QAYTA BAHOLANISHI

**Bozarova Rayhona Elyorbek qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti,*

*Tarix yo‘nalishi 402-guruhan talabasi*

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada yurtimiz mustaqillik yillarda jadidchilik faoliyati tarixinin qayta o‘rganilishi tahlil qilinadi. Maqolada jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari, ularning ilm-fan, ma’rifat va siyosiy sohadagi faoliyati, shuningdek, bugungi tarixshunoslikda ularning merosiga qaratilayotgan e’tibor yoritiladi. Shuningdek, ilmiy tarixshunoslik yondashuvi asosida yozilgan ushbu maqolada yangi manbalar va mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarga tayanilgan.

**Kirish .** Jadidchilik — bu XX asr boshlarida musulmon Sharqida, xususan, Turkistonda paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat bo‘lib, uning asoschilari xalqni ilm-ma’rifat, zamonaviy tafakkur va milliy uyg‘onish sari yetaklashni maqsad qilganlar. Ular maktab-ta’lim islohoti, milliy matbuot, ayollar huquqlari, davlat boshqaruvi kabi ko‘plab sohalarda ilg‘or g‘oyalarni ilgari surganlar. Yurtimizga Chor Rossiyasi bostirib kelgandan so‘ng xalqni axvoli ancha og’irlashdi. Bu qiyinchiliklar nafaqat moddiy , balki ma’naviy sohalarni ham qamrab oldi. Shunday sharoitda Rossiyadagi hokimiyat almashunuvi uning tasiri ostida bo‘lgan davlatlarga ham ta’sir etmasdan qolmadi. Bu tuzum “Sovet tuzumi” deya tarixda qoldi. Bu tuzum o’z qo’l ostida bo‘lgan xalqni hech ham marifatli bo’lishini hoxlamasdilar. Shuning uchun Sovet mafkurasi jadidlarni “kontrrevolyutsion kuch” sifatida ko‘rsatdi. Ular “xalq dushmani” sifatida tuhmatga uchratildi va ko‘pchiligi qatag‘on qilindi. Jadidlar faoliyati yillar davomida ilmiy jihatdan o‘rganilmay, ular haqida salbiy obraz shakllantirildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, milliy tarixni haqqoniy va xolisona o‘rganish imkoniyati yuzaga keldi. Bu jarayonda uzoq yillar mobaynida siyosiy sabablarga ko‘ra inkor etilgan yoki biryoqlama yoritilgan tarixiy hodisalar va shaxslarga nisbatan yangicha yondashuv shakllandi. Ayniqsa, jadidchilik harakatining tarixdagi o‘rni va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ildi. XX asr boshlarida xalqni ilm-ma’rifatga,

milliy uyg‘onishga da’vat qilgan bu ma’rifatparvar ziyorolar va ularning faoliyati Sovet davrida “xalq dushmani”, “reaksion kuch” sifatida baholangan edi. Mustaqillik yillarda esa jadidlar faoliyatiga yangicha, adolatli yondashuv paydo bo‘ldi, ularning millat va davlat taraqqiyotidagi o‘rni ijobjiy nuqtai nazardan tadqiq qilina boshlandi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, tarixiy adolat tiklana boshladi. Jadidchilik harakati faoliyatini qayta baholash, ularning asarlarini chop etish, hayoti va faoliyatini chuqr o‘rganish izchil yo‘lga qo‘yildi. Ilmiy anjumanlar, monografiyalar va hujjatli filmlar orqali jadidlar xalq oldidagi xizmatlari ochib berissh boshlandi.

Tarix — bu nafaqat o‘tgan voqealarning bayoni, balki xalq xotirasining ifodasıdır. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixshunoslikda chuqr sifat o‘zgarishlari yuz berdi. Yangi davr nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki tarixiy xotirani tiklashda ham tub burilish yasadi. Ayniqsa, jadidchilik harakati tarixining qayta ko‘rib chiqilishi, ushbu davr tarixshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Avvallari noto‘g‘ri talqin etilgan yoki butunlay inkor qilingan jadidlar faoliyati endilikda milliy uyg‘onish harakati sifatida yuksak baholanmoqda. Ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va mustaqillik g‘oyalariiga yaqin qarashlari hozirgi kunda keng ilmiy muhokama qilinmoqda. Ushbu maqola ana shu tarixiy qayta baholash jarayonlarini ochib berishga qaratilgan. Jadidlar ilgari surgan ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalari bugungi mustaqil O‘zbekistonning davlat siyosatiga hamohangdir. Ularning “avval ilm, keyin taraqqiyot” degan shiori bugungi ta’lim islohotlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqillik yillarda tarixshunoslikda jadidchilik masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar va monografiyalar paydo bo‘ldi. Bu asarlar jadidlarning tarixiy rolini holis va manbaviy asosda yoritishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari har bir jadidchilik faoliyati namoyondalarining olib borgan ishlari, sa’y harakatlariga alohida e’tibor berila boshlandi. Jumladan bugungi kun misolida buni ochadigan bo‘lsak, Abdulla Avloniy nomi bilan beriluvchi oliy ta’lim talabalariga stipendiyalar joriy etilgan. Ushbu stipendiyalar marifatparvarlar faoliyatini chuqr o‘rgangan va ular asosida ilmiy jurnal, konfrensiyalarda izlanishlarini maqola sifatida chop etgan va bu borada kitoblar yozb, targ‘ibot ishlarini olib borgan talabalarga taqdim etiladi.

Nafaqat Abdulla Avloniy boshqa marifatparvarlar nomlarini yanada xalqimiz ongiga muhrlash maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘chalar, hiyobonlarga ularning nomlari berilib aholi ongi shururiga ularning biz uchun qilgan ishlari unutilmasligini muhrlamoqda. Ushbu ilmiy ishimizda ham jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati, tarixiy ahamiyati va ularning merosining mustaqillik davrida qayta ochilishi jarayonlari tahlil qilishga harakat qildik. Shu o‘rinda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu beba ho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” – deya takidlaganlar.

Jadid bobolarimizga imkon berilganida, bizning mustaqil milliy ta’lim tizimimiz allaqachon yaratilgan va shu asosda allaqachon rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilgan bo‘lar edik. Biroq istibdod bularning hech biriga yo‘l bermadi, erishilgan natijalar ham unutildi, unuttirildi. Milliy ta’lim tizimi 1991-yilga kelibgina qayta tiklana boshladi. Ammo 2025-yilda turibmizki, hali ham mustaqil, milliy sharoitimiz talabidan kelib chiqadigan mukammal tizimni yarata olmadik. Umid qilamizki, bu muammolar o‘z yechimini topadi, eski qarashlar o‘rmini zamonaviy bilim egallaydi. Jadid bobolarimizdan qolgan toza o‘zanlar asosida Mustaqil o‘zbek milliy ta’lim tizimi yaratiladi.

**Xulosa** Jadidchilik harakati xalqimizning mustabid tuzumidan qutilishida, milliy mafkurasi shakllanishida, shuningdek, diniy va dunyoviy qarashlari bir qadar yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadid bobolarimiz mustamlakachilarni jiddiy qarshiliklariga qaramay, yosh avlodlarni har jihatdan ilmli qilishga harakat qilganlar. Maktab, maorif, matbaachilikni o‘lka bo‘ylab yoyilishida jonbozlik ko‘rsatdilar, maktablar uchun o‘zları darslik yaratadilar. Shunday ekan biz yosh avlod ular qoldirgan merosga munosib farzand bo‘lishumiz darkor. Ularning hali tahlil qilinmagan qancha asarlari bor, biz ularni o‘rganishimiz va o‘zimizdan keying avlodga aslicha meros qilib qoldirishimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Avloniy A.“Tarjimai xol. Tanlangan asarlar.2-jild.T., “Ma’naviyat”, 1998 yil 288-bet”.
2. Gafarov S. Ismail Gasprinskiy buyuk pedagog. S.: Tarpan, 2001, 57-58-betlar;
3. S.A.Toshtemirov “Tarixshunoslik” Toshkent-2022. 267-b
4. Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. Аскаров
5. А.А. Узбек халқининг этногенези ва этник тарихи. - Тошкент: Университет, 2007.
6. Бойназаров Ф.Йрта Осиёнинг антик даври. Т., уқитувчи 1991.
7. Turkiston chor mustamlakachiligi davrida. 1- qism. Т. “Sharq”, 2000.
8. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. 2 - qism. Т. “Sharq”, 2000.